

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

АДАПТИВНОЕ БИЗНЕС-ПЛАНИРОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	10
<b>Шарипов Конгратбай Авезимбетович, Исматуллаев Темур Равшан угли</b>	
STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI .....	18
<b>Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna</b>	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА.....	26
<b>Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	35
<b>Габбарова Ильмира Володиевна</b>	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	41
<b>Amirov Shavkat Rahmatullayevich</b>	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	48
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
PEREGONDAGI HARAkatNI BOSHqARISH TIZIMLARINI MIKROPROtSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIqISH.....	53
<b>Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	62
<b>Alimova Dilafro'z Tohir qizii</b>	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	68
<b>Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi</b>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.....	67
<b>Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	74
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi</b>	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	82
<b>Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li</b>	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHqARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI.....	89
<b>Muxtorova Shaxlo Farxodovna</b>	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	101
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY .....	106
<b>Sultanova Kamila Mukhtorali kizi</b>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	111
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	



MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR .....	117
<b>Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna</b>	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI .....	123
<b>Turdikulova Moxira Maxmasharifovna</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI .....	127
<b>Kaxorova Zamira Safaraliyevna</b>	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO‘Y BERISHI MUMKIN BO‘LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI .....	132
<b>Dehqonov Oyatillo Mansurbek o‘g‘li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich</b>	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH... .....	143
<b>Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg‘ashova Madina, Jo‘rayev Muhiddin</b>	
JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	147
<b>Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.</b>	
KORXONALARDA “TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH” KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJIRIBASI .....	151
<b>Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich</b>	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO‘LLARI.....	156
<b>Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna</b>	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH .....	161
<b>Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna</b>	
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O‘RNI .....	166
<b>Irgashev Anvar Farxodovich</b>	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	173
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР .....	178
<b>Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы</b>	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI .....	184
<b>O‘tbosarov Abrorbek Adxamjon o‘g‘li</b>	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	189
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI.....	196
<b>Ro‘zmetov Mansur</b>	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	200
<b>Shaydulova Marjona Alisher qizi</b>	
KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	205
<b>Rizoyev Farrux Hikmatilloevich</b>	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	210
<b>Turaboev Ibroxim Ismoil o‘g‘li</b>	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG‘DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	215
<b>Komilova Nodira Abdirahmon qizi</b>	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ .....	225
<b>Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович</b> ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ.....	231
<b>Тожалиев Шохрух Талип ўғли</b> GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING .....	236
<b>Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna</b> O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH .....	241
<b>Azlarova Aziza Axrorovna</b> AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	248
<b>Marufxanov Davron Hasanovich</b> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI.....	255
<b>Isakjanova Saboxat Muhamedovna</b> MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	263
<b>Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna</b> DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI.....	268
<b>Anvar Deberdiyev</b> RAQAMLI XIZMATLARNING O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O'RNI .....	272
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi</b> TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	278
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b> IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILiyATIGA YANGICHA YONDASHUV.....	283
<b>Tadjiev Bexzod Umidjanovich</b> OTMNI MOLIYAVIY TA'MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELARI.....	290
<b>Tuxliyev Bozor Karimovich</b> TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	293
<b>Abirova Nargizabonu</b> TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	298
<b>Ro'ziyeva Maftuna Yusufovna</b> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI .....	303
<b>Sharipova Shahlo Istamovna</b> METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	308
<b>Maxmudov Dostonbek Soyibjon o'g'li</b> SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	312
<b>Mirzakulova Risolat Musurmankulovna</b> O'ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....	317
<b>Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra</b>	



OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOYIY XARAJATLARNI BOSHQARISH.....	323
<b>Primova Nigora Ikrom qizi</b>	
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR .....	331
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASI..	337
<b>Aripov Ulug'bek Bahodirovich</b>	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	341
<b>Xakimov Akbar Anvarovich</b>	
FOTOELEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI.....	344
<b>Majidova Maxliyo A'zam qizi</b>	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	354
<b>Komilova Nodira Abdirahmon qizi</b>	
STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV).....	362
<b>Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova</b>	
ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES.....	367
<b>Sanemkhan Abdullaeva</b>	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI .....	375
<b>Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li</b>	
PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQLASH .....	379
<b>Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayriddin</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА.....	386
<b>Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	391
<b>Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li</b>	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	397
<b>Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi</b>	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI .....	403
<b>Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna</b>	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	407
<b>Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi</b>	
XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHİYATI VA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARKIBI HAMDA JORIY HOLATI .....	411
<b>Karimova Shaxnoza O'ktamovna</b>	
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	418
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH .....	423
<b>Xalimov Shaxboz Xalimovich</b>	
AKTIVLAR QADRSIZLANISHI XARAJATLARINING MOLIYAVIY VA SOLIQ HISOBOTLARIGA TA'SIRI.....	427
<b>Jarimbetov Ajiniyaz Kurbanbaevich</b>	



MUHANDISLIK GEOMETRIYASI VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM NATIJALARIGA TA'SIRI: AUDIO VA VIDEOTEKNOLOGIYALAR IXTISOSLIGI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	430
<b>Utkirova Mamura Faxriddin qizi</b>	
HUDUDIY TADBIRKORLIK TIZIMIDA INVESTITSION RESURSLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL VA EKONOMETRIK YONDASHUVLARI .....	436
<b>Isakov Axmadali Esanbayevich</b>	
MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA INVESTITSION RESURSLARNING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH .....	444
<b>Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li</b>	
XABAR ALMASHISHGA ASOSLANGAN MARKETINGDA ISTE'MOLCHILARNING SHAXSIY HAYOTINI KUTILMALARI .....	452
<b>Raxmatova Sitora Shuxratjon qizi</b>	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI OPTIMALLASHTIRISH VA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH: XORIJIY Tajribalar asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat Sektorini InstitutSIONAL ISLOH QILISHNING QIYOSIY TAHLILI .....	461
<b>Sharapov Umidjon Shavkatovich</b>	
ZAMONAVIY SERVIS KOMPANIYALAR TANNARXINI ANIQLASHNING DOLZARB YO'NALISHLARI .....	471
<b>Berdiyeva Dilfuza Axatovna</b>	
NAVOIY VILOYATINING TURISTIK OBYEKTLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI TAHLILI .....	477
<b>Turayev Abduvoxid Kuldashevich</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	483
<b>Alimova Dilafro'z Tohir qizi</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI .....	488
<b>Suvonov Ibrohim Izbosarovich</b>	
QORAKO'L TERI JINGALAKLARINING TAKRORLANMAS KO'RINISHI VA XUSUSIYATLARI .....	492
<b>Hakimova Sh.Q., Azimov J.Sh., Farmonov F.F.</b>	
YOSH TADBIRKORLARNING STARTAP LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	497
<b>Koriev Orif Azizovich</b>	
HUDUDLARDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	502
<b>Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Karimov Chuxmor Abdirashidovich</b>	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY HOLATI VA MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI .....	507
<b>Alimov Baxodir Batirovich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISHNING IQTISODIY TAHLILI .....	513
<b>Turg'unov Nodirbek Muminjanovich</b>	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINING ROLI .....	516
<b>Xodjimatom Maksudbek Ubaydullayevich</b>	
MINTAQA TURIZM INDUSTRIYASINING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA BOSHQARUV FAOLIYATLARI TAHLILI .....	520
<b>Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Ruziqulov Aziz Tuxtayevich</b>	



# MINTAQA TURIZM INDUSTRIYASINING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA BOSHQARUV FAOLIYATLARI TAHLILI

**Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich**

IPU "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

**Ruziqulov Aziz Tuxtayevich**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti iqtisodiyot yo'nalishi magistranti

E-mail: [jasurberdiyev6834@gmail.com](mailto:jasurberdiyev6834@gmail.com)

ORCID: 0009-0006-0111-4300

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida innovatsion jarayonlarni jadallashtirish, milliy turizm industriyasini jadal rivojlantirish va uni strategik boshqarish, turizm korxonalarini boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalari yoritilgan. Shu nuqtayi nazardan, kichik biznes korxonalarini modernizatsiyalash jarayonida innovatsion loyihalarni amalga oshirishni strategik boshqarish samaradorligini oshirish muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** turizm, boshqaruv mexanizmi, korxonalar, iqtisodiyot, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyat, innovatsion tadbirkorlik, innovatsion biznes, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ixtirochilar, konstruktorlar, texnologlar.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы ускорения инновационных процессов, стремительного развития национальной туристической индустрии и её стратегического управления в условиях экономической либерализации, повышения эффективности механизма управления туристическими предприятиями, а также обеспечения устойчивого развития экономики. В этой связи важным фактором повышения эффективности стратегического управления выступает реализация инновационных проектов в процессе модернизации предприятий малого бизнеса.

**Ключевые слова:** туризм, механизм управления, предприятие, экономика, инновационная деятельность в сфере услуг, инновационное предпринимательство, инновационный бизнес, стимулирование инновационной деятельности, изобретатели, конструкторы, технологи.

**Abstract.** This article examines issues related to accelerating innovation processes, rapidly developing the national tourism industry and its strategic management under conditions of economic liberalization, improving the efficiency of tourism enterprise management mechanisms, and ensuring sustainable economic development. In this regard, the implementation of innovative projects during the modernization of small businesses serves as an important factor in enhancing the effectiveness of strategic management.

**Keywords:** tourism, management mechanism, enterprise, economics, innovation in the service sector, innovative entrepreneurship, innovative business, stimulation of innovative activity, inventors, designers, technologists.

## KIRISH

Bugungi kunda turizmni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini taraqqiy ettirishda muhim o'rin tutadi. Har bir mamlakat o'zining iqtisodiy salohiyati, geografik joylashuvi, tarixiy merosi va zamonaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirishga intiladi. Jumladan, salomatlik turizmi, tibbiyot turizmi, ekoturizm, ekskursiya turizmi, sport turizmi, ekstremal turizm hamda ziyorat turizmi kabi yo'nalishlarni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Xalqaro turizm rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va marketing vositalarining keng qo'llanilishini hisobga olgan holda, raqobatbardosh turizm mahsulotlari va xizmatlari strategiyalarini ishlab chiqish hamda ularni ichki va xalqaro turizm bozorlarida samarali targ'ib qilish orqali mamlakatimizning ijobiy turistik imijini shakllantirish mumkin.

Mamlakatimiz turizm sohasida xorijiy davlatlar bilan raqobatlasha oladigan ulkan salohiyat va boy imkoniyatlarga ega bo'lib, bu holat mazkur yo'nalishda yuqori natijalarga erishish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda. Respublikamizda turizmni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatli va zamonaviy xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirish hisoblanadi. So'nggi yillarda turizm infratuzilmasini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash, tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda marketing va reklama faoliyatini



rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa sohaning barqaror rivojlanishiga va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot mavzusi turizm industriyasini strategik boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini ilmiy jihatdan o'rganish va ularni takomillashtirishga qaratilganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan dunyoning yetakchi olimlari, jumladan, Donald Lundberg, M. Kchishnallor, Mayk Stavenga, M. Ansoff, R.M. Bolmostor va boshqa ko'plab tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanishlarida mazkur yo'nalishning nazariy va amaliy jihatlarini keng yoritganlar. Shuningdek, hamdo'stlik mamlakatlari olimlaridan V.I. Azar, V. Kistanov, A.Yu. Aleksandrova, N.S. Burgakov, V.F. Molchanov, Ye.P. Puzakova, V.A. Lestnikova, I. Zorin, J. Koz, A. Kondratev va boshqa olimlar turizm industriyasini jadal rivojlantirish hamda uni strategik boshqarishdagi muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy-amaliy fikr-mulohazalar bildirganlar.

Mamlakatimiz olimlaridan G. Nazarova, T. Tashmurotov, N. Abdusalomova, A. Norchaev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan turizm sohasida marketing faoliyatini rivojlantirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda mazkur yo'nalishdagi muammolar yechimining nazariy-amaliy asoslarini yaratishga muhim hissa qo'shilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlarida bayon etilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Hukumat qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, boshqaruv muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida Qashqadaryo viloyati turizm korxonalarining hisobot ma'lumotlari, milliy turizm korxonalarini faoliyatida strategik boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi hujjatlar hamda statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm jahon iqtisodiyotining murakkab va ko'p tarmoqli sohalaridan biri bo'lib, u global iqtisodiyot rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayrim mamlakatlarda xalqaro turizm valyuta tushumlarining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha iqtisodiy taraqqiyotning yuqori darajada bo'lishi hamda aholi farovonligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda xalqaro turizm jahon iqtisodiyotining eng muhim, barqaror va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda.

Turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda turizmning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 10 foizdan ortiqni tashkil etadi. Mazkur tarmoqda dunyodagi mehnatga layoqatli aholining qariyb 8 foizi band bo'lib, turizm xizmatlari jahon eksportining 7 foizini tashkil qilmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda butun dunyo bo'yicha turizmning umumiy o'sish sur'ati 4,5 % ni tashkil etgan. Xalqaro turistlar soni 820 mln nafarga yetib, turizm xizmatlaridan olinadigan umumiy daromad hajmi 650 mlrd AQSh dollaridan oshgan. Shu bilan birga, xalqaro turistik xizmatlar va servis sohasi tarkibi ham tubdan o'zgarib, jahon turizm bozori tobora xilma-xillashib bormoqda. Natijada aholining turistik mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabi muntazam ortmoqda.

Jahon iqtisodiyotining yetakchi va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblangan turizm sohasiga bo'lgan talabning ortib borishi ushbu yo'nalishdan olinadigan daromadlar hajmining oshishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga hamda aholi bandligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Butunjahon turizm va sayyohlik kengashi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda turizm va sayyohlik sohasi bilvosita va induktiv ta'sirlarni hisobga olgan holda jahon iqtisodiyotiga 8,3 trln AQSh dollaridan ortiq hissa qo'shgan. Shu yilda mazkur sohada 313 mln ish o'rinlari yaratilgan bo'lib, bu ko'rsatkich jahon yalpi ichki mahsulotining 10,4 % ini hamda jami ish o'rinlarining 10 % ini tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida mamlakat iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlari qatorida turizm sohasini rivojlantirish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Harakatlar strategiyasining asosiy maqsadi amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, mamlakatni modernizatsiyalash hamda iqtisodiyot tarmoqlarini liberallashtirishdan iboratdir. Mazkur strategiyada iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari doirasida turizm sohasini rivojlantirish

bo'yicha bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan.

Birinchidan, turizm tarmog'ini jadal rivojlantirish, turizm sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish, viza, litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish vazifalari belgilangan.

Ikkinchidan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro brendlarni turizm bozoriga olib kirish hamda turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilgan.

Uchinchidan, yangi turizm yo'nalishlarini shakllantirish, turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish hamda ularning jozibadorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish, uni xalqaro standartlar talablari asosida shakllantirish orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash imkoniyati mavjud. Xalqaro turizm bozorida kuchli raqobat sharoitida yuqori natijalarga erishish uchun aniq strategik yo'nalish, uzluksiz izlanish va faoliyatni jahon andozalari darajasida tashkil etish talab etiladi. Shu maqsadda mamlakatimizda keyingi yillarda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5326-son Farmoni<sup>1</sup>, 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni<sup>2</sup> hamda 2019-yil 13-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5781-son Farmonlari<sup>3</sup> mamlakatimizda xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Mazkur farmonlar asosida milliy turizmni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi va unda 2019–2025-yillar davomida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar o'z aksini topdi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida turizmning zamonaviy modelini shakllantirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Ushbu modelda ta'kidlanishicha, mamlakatda rivojlantirilayotgan turistik bozor boshqa bozorlar kabi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. U mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, investitsiyalar va kapital oqimini ta'minlash darajasini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda turistlarga xizmat ko'rsatish asosan xususiy va tijorat kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi. Biroq, har qanday sharoitda ham davlat tomonidan qulay iqtisodiy va huquqiy muhit yaratilgan taqdirdagina turizm sohasining barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Turizm infratuzilmasi rivojlangan shaharlarda turistlarga zamonaviy va yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. So'nggi yillarda mamlakatimizning turli hududlarida, jumladan, Termiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Andijon viloyatida turizm salohiyatini yanada oshirish, mehmonxona xizmatlari sifatini takomillashtirish hamda xorijiy turistlarni jalb etish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, turistik obyektlarni zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish va xizmat ko'rsatish tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish ishlari hududlarning turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mahalliy darajada xususiy kapitalni qo'llab-quvvatlash, turistik xizmat ko'rsatish tizimiga integratsiyalashgan shaxsiy uy va xonadonlar faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, turistik yo'nalishlarda joylashgan hududlarda 10–20 kishiga mo'ljallangan zamonaviy mehmon uylarini tashkil etish bo'yicha tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish nafaqat xizmatlar sifatini oshirishga, balki yangi ish o'rinlari yaratish va ichki hamda tashqi turizm oqimini kengaytirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida turizm infratuzilmasining hududiy qamrovi kengayadi hamda turistlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yanada yaxshilanadi. O'zbekiston turizm sanoatining 2022–2024-yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlariga e'tibor qaratsa, ushbu sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining roli tobora ortib borayotganini kuzatish mumkin. Jumladan, 2021-yilda mamlakat bo'ylab sayohat qilgan jami turistlar soni 752 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 864 ming kishiga, 2024-yilda esa 916 ming kishiga yetgan. Shuningdek, xorijiy turistlar sonida ham yildan-yilga o'sish kuzatilgan. Xususan, 2022-yilda xorijiy turistlar soni 274 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 306 ming kishiga, 2024-yilda esa 329 ming kishiga yetgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2023-yilda jami turistlar soni qariyb 100 ming kishiga oshgan bo'lsa-da, xorijiy turistlar sonining o'sishi 2022-yilga nisbatan 23 ming kishini tashkil etgan. Mazkur holat mamlakatimizda ichki turizmning rivojlanish sur'atlari xorijiy turizmga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi (1-jadval).

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 03.02.2018 yildagi PF-5326-son <https://www.lex.uz/docs/-3548467>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.01.2019 yildagi PF-5611-son <https://lex.uz/docs/-4143188>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.08.2019 yildagi PF-5781-son <https://lex.uz/uz/docs/-4474527?ONDATE=20.01.2024>



1-jadval  
O'zbekiston turizmining iqtisodiy ko'rsatkichlari<sup>4</sup>

Yil	Turistlar soni, ming kishi		Turistik xizmatlar
	Jami	Shundan chet ellik turistlar soni, ming kishi	Turistik xizmatlar eksporti, mln AQSh dollari
2022	752	274	25,5
2023	864	306	25,8
2024	916	329	27,5

Endi e'tiborni mahalliy va xorijiy sayyohlarga ko'rsatilayotgan turistik xizmatlar hamda turistik xizmatlar eksportini ifodalovchi ko'rsatkichlarga qaratamiz. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, turistlar oqimining ortishi bilan bir qatorda turistik xizmatlar eksporti hajmi ham 3 yil davomida izchil oshib borgan. Jumladan, 2022-yilda turistik xizmatlar eksporti 25,5 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 25,8 mln AQSh dollariga, 2024-yilda esa 27,5 mln AQSh dollariga yetgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, turizm respublikamiz iqtisodiyoti uchun muhim valyuta tushumini ta'minlovchi sohalardan biri hisoblanadi (2-jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2022–2024-yillar davomida valyuta tushumi hajmi muntazam o'sib borgan.

Xususan, 2022-yilda valyuta tushumi 18 835 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 20 980 ming AQSh dollariga, 2024-yilda esa 25 255 ming AQSh dollariga yetgan. Shunga mos ravishda, bir turistga to'g'ri keladigan o'rtacha valyuta tushumi miqdori ham yildan-yilga oshgan. Jumladan, 2022-yilda bir turistga to'g'ri keladigan o'rtacha valyuta tushumi 74,5 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 77,1 AQSh dollariga, 2024-yilda esa 93,2 AQSh dollariga yetgan (2-jadval).

2-jadval  
O'zbekistonda turizmdan olinayotgan valyuta tushumi<sup>5</sup>

Yillar	Valyuta tushumi, ming AQSh dollari	Bir turistga to'g'ri keladigan o'rtacha valyuta tushumi, AQSh dollari
2022	18 835	74,5
2023	20 980	77,1
2024	25 255	93,2

Umuman olganda, yuqoridagi jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar mamlakatimiz turizm sanoati rivojida xususiy sektor, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining muhim o'rin tutayotganligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston turizm sanoatida umumiy ovqatlanish xizmatlarini yanada takomillashtirish va xalqaro standartlar asosida rivojlantirish bo'yicha keng imkoniyatlar mavjud. Xususan, yevropalik turistlar standart talablarga mos tayyorlangan oddiy, sifatli va mazali taomlarni afzal ko'radilar. Bu esa mamlakatimizda zamonaviy asbob-uskunalar, ilg'or ovqat tayyorlash texnologiyalari hamda xalqaro tajribalarni keng joriy etish orqali xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish imkonini beradi. Natijada, umumiy ovqatlanish tizimini modernizatsiya qilish turistlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va mamlakatimiz turistik jozibadorligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizdagi ayrim mehmonxonalar o'rtacha 20–25 turdagi taomlarni taklif qilish imkoniyatiga ega. Biroq, xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritayotgan turistik komplekslarda 200 ga yaqin turdagi taomlar taklif etilishi mumkin. Mazkur muammoni samarali hal etishning muhim yo'nalishlaridan biri xususiy restoran va kafelar sonini ko'paytirish hamda ulardagi xizmat ko'rsatish sifatini xalqaro standartlar asosida tashkil etishdan iboratdir.

O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 25 foizi ovqatlanish xizmatlaridan qoniqqanligini bildirgan bo'lsa, 41 foizi taomlar sifati bo'yicha aniq baho berishni ma'qul ko'rmagan. Mazkur holat umumiy ovqatlanish obyektlarida xizmat ko'rsatish

4 "O'zbekturizm" MK ma'lumotlari, 2024-yil.

5 "O'zbekturizm" MK ma'lumotlari, 2024-yil.

sifatini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bois, xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatuvchi umumiy ovqatlanish obyektlarini sertifikatlash va muntazam nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, turistlarni mahalliy taomlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish maqsadida reklama prospektlari, axborot bukletlari va zamonaviy elektron platformalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa milliy gastronomik turizm salohiyatini oshirish hamda turistlarning mamlakatimiz madaniy merosiga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladi. O'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, xorijiy turistlarning aksariyati ovqatlanish shoxobchalari xizmatlari haqida yanada batafsil ma'lumot olish istagini bildirgan. Mazkur holat turistik axborot tizimini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish obyektlari haqida ko'proq va sifatli ma'lumotlar taqdim etish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Xalqaro turizm sohasida band bo'lganlar soni keyingi yillarda izchil oshib bormoqda. Shu bilan birga, turizm sohasi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xizmat ko'rsatish korxonalarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning mehnati ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur holat 3-jadval ma'lumotlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston turizm industriyasida band bo'lganlar soni 2020-yilda 27 922 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 31 248 kishiga yetgan (3-jadval).

3-jadval  
O'zbekiston turizm industriyasida band bo'lganlar soni<sup>6</sup>

Bandlar	2020	2021	2022	2023	2024
1. "O'zbekturizm" milliy turizm kompaniyasi	9 672	7 055	6 802	5 671	5 365
2. Transport xizmatlari	6 750	5 831	4 523	4 559	4 865
3. Savdo va marketing xizmatlari	3 005	3 151	3 570	3 810	3 890
4. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasiga tegishli bo'lmagan joylashtirish va ovqatlanish xizmatlari	250	1 572	2 986	4 738	4 965
5. Zamonaviy turistik obyektlarni qurish	846	1 008	1 270	1 535	1 570
6. Turizm biznesida yakka tartibdagi mehnat faoliyati	2 981	685	1 578	2 672	2 977
7. Madaniyat-ma'rifat muassasalari	2 720	2 912	2 995	3 060	3 101
8. Yodgorliklar va tabiatni muhofaza qilish	1 448	1 556	1 677	1 737	1 890
9. Kichik biznes va xususiy hamkorlikdagi turistik korxonalar	248	1 675	1 848	2 233	2 595
<b>Jami</b>	<b>27 922</b>	<b>25 445</b>	<b>27 249</b>	<b>30 062</b>	<b>31 248</b>

Respublika turizm industriyasini yangi sifat bosqichiga olib chiqish uchun ushbu sohada faoliyat yuritayotgan har bir xodim yuqori darajadagi servis xizmatini ko'rsatish tamoyillarini chuqur bilishi va amaliyotda qo'llay olishi zarur. Shu bois, xodimlarni mehnat natijalaridan manfaatdor qilish, ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun esa barcha yo'nalishlarda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish talab etiladi. Har qanday mamlakatda turizmning rivojlanishi, avvalo, ushbu sohaga nisbatan davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat samaradorligiga bog'liqdir. Davlat turistik infratuzilmani shakllantirish va uning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Jumladan, me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, turizm va uning alohida yo'nalishlarini rag'batlantirish, tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish, turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish hamda turistlar huquq va manfaatlarini himoya qilish orqali sohaning barqaror rivojlanishiga ko'maklashadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqada turistik faoliyat ustidan davlat nazorati turizm sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, turistik mahsulotlarni ichki va xalqaro turizm bozorlarida faol targ'ib qilish, turistik faoliyatni standartlashtirish va litsenziyalashtirishni rivojlantirish, turistik mahsulotlarni sertifikatlashtirish, mamlakatga kirish, chiqish va istiqomat qilish qoidalarini zamonaviy talablar asosida tartibga solish, turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishga budjet mablag'larini yo'naltirish orqali samarali tashkil etilmoqda. Shuningdek, sayyohlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning xavfsizligini ta'minlash, investitsiyalar, soliq va bojxona nazoratini

6 "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi materiallari.



takomillashtirish, turizm faoliyatini malakali kadrlar bilan ta'minlash hamda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Viloyatda turizmni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar mehmonxona va transport xizmatlari sifatini xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish, ovqatlanish va dam olish tizimini modernizatsiya qilish, marketing va reklama faoliyatini kengaytirish hamda turistik firmalar xodimlari malakasini oshirish orqali sohaning raqobatbardoshligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda turizm sohasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, uning rentabelligini oshirish, yuqori texnologik komplekslar va rivojlangan infratuzilmaga ega turistik markazlarni shakllantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ichki turizmni rivojlantirish, yoshlar, aholining kam ta'minlangan qatlamlari hamda urush va mehnat faxriylari uchun turistik-ekskursiya xizmatlarini kengaytirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bizning fikrimizcha, mintaqada turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun tarixiy va madaniy markazlarda sayyohlik infratuzilmasini kengaytirish, aviatransport xizmatlarini takomillashtirish, istiqbolli xalqaro bozorlarni qamrab olish, malakali mutaxassislar tayyorlash, dam olish va ko'ngilochar xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro turizm bozorida samarali PR strategiyalarini keng joriy etish, xorijiy sayyohlik tashkilotlari bilan hamkorlikni mustahkamlash, milliy sayyohlik brendi va turistik mahsulotlar xilma-xilligini oshirish hamda statistik ma'lumotlarni tezkor va to'liq shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, mintaqada turizm industriyasini rivojlantirish bo'yicha tizimli va innovatsion chora-tadbirlarni amalga oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda zamonaviy marketing va boshqaruv mexanizmlarini joriy etish sohaning barqaror rivojlanishi va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raximov A.Z. Mintaqa turizm industriyasini rivojlantirish va innovatsion boshqarish yo'llari // "Ilm-fan taraqqiyotiga yoshlarning innovatsion yondashuvlari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalar to'plami. – Qarshi, 2020-yil 14-may.
2. Рахимов А.З. Этика предпринимательства в контексте социокультурного процесса реформирующегося общества // Журнал «Столица науки». – Москва, 2020-йил 16-сентябрь. – № 9(26).
3. Рузиев С.С. Маркетинговые исследования в туризме: учебное пособие. – Т.: Издательство Литературного фонда Союза писателей Узбекистана, 2006. – 176 с.
4. Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. – Ташкент: «ФАН», 2009. – 162 с.
5. Tuxliev I.S. va boshqalar. Turizm asoslari: darslik. – Toshkent, 2014. – 388 b.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)